O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNOVA BARNO ABDIYEVNA

SPEKTRAL-TO‘R METODINING IKKINCHI TUR CHEBISHEV KO‘PHADLARI BILAN YAQINLASHISHI VA YAQINLASHISH TEZLIGINI BAHOLASH

01.01.03-Hisoblash matematikasi va diskret matematika (fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI(PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT-2024

UDK:519.624.3

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNOVA BARNO ABDIYEVNA

SPEKTRAL-TO‘R METODINING IKKINCHI TUR CHEBISHEV KO‘PHADLARI BILAN YAQINLASHISHI VA YAQINLASHISH TEZLIGINI BAHOLASH

01.01.03-Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI(PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT-2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respunlikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.3.PhD/FM519 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (https://ik-fizmat.nuu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Normurodov Chori Begaliyevich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Hayotov Abdullo Raxmonovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Urunbayev Erkin fizika-matematika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "28" 11 soat 15³⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi.(Manzil: 100174, Toshkent sh.,Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.:(+99871) 227-12-24, faks:(+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail:nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin(135 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.:(+99871) 227-12-24, faks:(+99871) 246-53-21, 246-02-24

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 14 11 kuni tarqatildi.
(2024 yil "24" 09 dagi 2 raqamli reestr bayonnomasi)

M.M.Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.R.Raxmanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d. dots.

R.D.Aloyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, fan va texnika sohasidagi turli masalalarni yechish, aksariyat hollarda ushbu masalalarning matematik modellarini va taqribiy yechimlarini qurish hamda ularga mos sonli metodlarni qo‘llash masalalariga keltiriladi. Ushbu toifadagi masalalarning ob’yekti sifatida, ko‘p hollarda yuqori tartibli umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglamalar va bunday tenglamalar uchun xos qiymat muammosi qaraladi. Shu sababli, umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglama bilan tavsiflanuvchi jarayonlar adekvatligini ta’minlovchi, yuqori aniqlik va samaradorlikka ega bo‘lgan sonli yechish metodlari, algoritmlari va dasturlar majmuini yaratish amaliy matematika sohasidagi muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda jahonda differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar va ularga mos xos qiymat muammosi bilan tavsiflanuvchi jarayonlarda optimal hisoblash metodlarini yaratishning statsionar masalasi hamda bunday jarayonlarning matematik modellari keng tadqiq etilmoqda. Differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar va ularga mos xos qiymat muammosi modellari gidrodinamika, gidroinshoatlar, kimyoviy texnologiya hamda turli texnik va texnologik sohalardagi loyihalash ishlarida, gidrodinamik tizimlarni optimal boshqarishda keng qo‘llaniladi. Shu sababli gidrodinamik tizimlarga oid masalalarning sonli modelini qurish va spektral-to‘r metodi bilan sonli yechish hamda xarakterli parametrning optimal qiymatlarini aniqlash va keng doiradagi foydalanuvchilarga mo‘ljallangan qulay interfeysga ega dasturlar majmuasini yaratish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan matematik fizika, mexanika, iqtisodiyot va energetika sohalaridagi masalalarning sonli-analitik yechish usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb yo‘nalishlarga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, spektral-to‘r metodini umumiy ko‘rinishdagi birjinsli chegaraviy shartlarga ega bo‘lgan chiziqli oddiy differensial tenglama va ushbu tenglamaga mos xos qiymat muammosiga tadbiq etish bo‘yicha salmoqli natijalarga erishildi. “Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, hisoblash matematikasi va diskret matematika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” kabi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha jahon standartlari darajasida ilmiy izlanishlar olib borish ko‘plab respublika ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlari fundamental tadqiqotlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi[1]. Qaror ijrosini ta’minlashda, umumiy ko’rinishdagi oddiy differensial tenglama va bunday tenglamalar uchun xos qiymat muammosini analitik va sonli yechish usullarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori.

ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. ”Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Spektral metod S. Orszag tomonidan tavsiya etilgan. 1969 yildan boshlab S. Orszag tomonidan chop etilgan maqolalarda davriy geometrik masalalar uchun Furye metodlari, chekli va cheksiz geometrik masalalar uchun polinomial spektral metodlar, kuchli chiziqli bo‘lmagan masalalar uchun psevdospektral metodlar, statsionar holat masalalarini yechishning spektral iterativ metodlari va boshqa masalalarni yechishda mo‘ljallangan spektral metodlar ishlab chiqilgan. Oddiy differensial tenglamalarni sonli yechishda spektral metodning tadbiqi va uning yanada umumlashgan tenglamalarda qo‘llanilishi L. V. Kantorovich, E. B. Karpilovskiy, O. Kisha, I. Petersen, I. T. Dolapci, M. A. Ramadan, K. R. Raslan, T. S. El Danaf, M. A. Abd El Salam, C. Lanczos, E. L. Ortiz, M. R. Crisci, I. H .Siyyam, K. Parand, M. Razzahgi, B. G. Galerkin, I. Bubnov, M. Keldish, K. Fletcher, M.A.Krasnoselskiy, G. M. Vaynikko, P. P. Zabreyko, Y. B. Rutitskiy, V. Y. Stetsenko , S. R. Smith, S. Adjerid, A. Temimi kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Spektral metodlarda asosan bazis funksiyalari sifatida birinchi tur Chebishev ko‘phadlari qo‘llanilgan. Keyingi yillarda sonli analizda nazariy va amaliy nuqtai nazardan birinchi tur Chebishev ko‘phadlari qatorida yaqinlashishlar nazariyasida minimallik xususiyatiga va funksional fazoda diskret va uzluksiz ortogonallikka ega bo‘lgan ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlari ham keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlarining tadbiqiga oid ilmiy tadqiqotlar M. Mahalakshmi, G. Hariharan, K. Kannan, A. Midde, L. Chen, Z. Mao, H. Li, M. Abdelhakem, Aya Ahmed, M. El-kady, K. R. Raslan, K. K. Ali, E. M. H. Mohamed, M. Lotayif, M. A. Abd El salam kabi ko‘plab xorijiy olimlarning ishlarida keltirilgan.

Umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni, bunday tenglamalar uchun xos qiymat muammosi hamda yuqori tartibli hosila oldida kichik parametr bo‘lgan differensial tenglamalarni sonli yechish va matematik modellashtirishda M. A. Lavrent’ev, B. V. Shabat, L. D. Landau, E. M. Libshits, A. N. Tixonov, N. N. Yanenko, N. S. Baxvalov, S. K. Godunov, O. A. Ladijenskiy, N. A. Jeltuxin, A. L. Krilov, B. L. Rojdestvenskiy, V. YA. Levchenko, A. S. Solovyov, M. A. Goldshtik,

V. A. Sapojnikov, B. P. Kolobov, A. G. Sleptsov, S. A. Orszag, H. Salwen, C. E. Grosch, D. Gottlieb, E. Turkel, A. T. Patera, T. J. Bridjes, H. G. Ku, A. Zebib kabi xorijiy olimlarning hissasi katta bo‘lgan.

Respublikamizda nochiziqli differensial masalalarni yechishga bag‘ishlangan tadqiqotlar F. B. Abutaliyev, M. M. Aripov, B . Xo‘jayorov, R. D. Aloyev, X. M.Shadimetov, Ch. B. Normurodov, A.R.Hayotov, A .S . Matyakubov, Z .R . Raxmonov, Sh. A. Sadullayeva va boshqalar tomonidan olib borilgan. Jumladan, spektral, spektral-to‘r metodlari F. B. Abutaliyev va Ch. B. Normurodov ishlarida tadqiq etilgan. Ularning ishlarida umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar yechimlarining birinchi turdagi Chebishev ko‘phadlariga asoslangan spektral-to‘r metodi bilan yaqinlashishi va yaqinlashish tezligi baholari keltirilgan. Bir fazali va ikki fazali gidrodinamik tizimlar matematik modellarini tadqiq etishga mo‘ljallangan spektral-to‘r metodi ishlab chiqilgan. Spektral-to‘r metodining gidrodinamik turg‘unlik muammolarini matematik modellashrishda samarali metod ekanligi, boshqa metodlardan farqli ravishda gidrodinamik turg‘unlik muammosini tavsiflovchi xos qiymat muammosining barcha xos qiymatlarini topishga imkon berishi asoslangan. Jumladan, gidrodinamik tizimlardagi eng muhim muammolardan biri bo‘lgan gidrodinamik turg‘unlik muammosini tavsiflovchi Orr-Sommerfeld tenglamasining xos qiymatlari spektral-to‘r metodi bilan aniqlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasiga muvofiq “Matematik modellashtirish, hisoblash metodlari va dasturlash texnologiyalari” dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglama hamda ushbu tenglama uchun xos qiymat muammosini yechishda spektral-to‘r metodining ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlari bilan yaqinlashishini isbotlash va yaqinlashish tezligi baholarini olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlari xossalarini tahlil etish;

umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglama uchun chegaraviy masalani spektral-to‘r metodi bilan approksimatsiyalash va metodning yaqinlashishini isbotlash;

to‘rning maksimal qadami, approksimatsiyalashda qo‘llaniladigan minimal Chebishev ko‘phadlari soni va differensial tenglamadagi yuqori tartibli hosila ko‘rsatkichi orqali taqribiy yechimning aniq yechimga yaqinlashish tezligi bahosini olish;

umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglama uchun xos qiymat muammosini spektral-to‘r metodi bilan approksimatsiyalash, metodning yaqinlashishini asoslash;

to‘rning maksimal qadami, approksimatsiyalashda qo‘llaniladigan minimal Chebishev ko‘phadlari soni va differensial tenglamadagi yuqori tartibli hosila ko‘rsatkichi orqali taqribiy xos qiymatlarning aniq xos qiymatlarga yaqinlashish bahosini olish;

yuqori tartibli hosila oldida kichik parametr bo‘lgan differensial tenglama uchun chegaraviy masalani sonli yechish algoritmini ishlab chiqish, dasturiy ta’minotini yaratish va sonli hisoblashlar o‘tkazish.

Tadqiqotning ob’yekti umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglama uchun chegaraviy masala hamda ushbu tenglamaga mos xos qiymat muammosi.

Tadqiqotning predmeti umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglama uchun chegaraviy masalani hamda ushbu tenglama uchun xos qiymat muammosini spektral-to‘r metodi bilan ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlari qatori orqali approksimatsiyalash, metodning yaqinlashishini isbotlash, yaqinlashish tezligi baholarini olish, yuqori tartibli hosila oldida kichik parametr bo‘lgan differensial tenglama uchun qo‘yilgan chegaraviy masalani spektral-to‘r metodi bilan yechish algoritmini ishlab chiqish va dasturiy ta’minotini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning metodlari. Tadqiqot ishida hisoblash matematikasi, matematik va sonli modellashtirish, funksional analiz, differensial tenglamalarni sonli yechish, approksimatsiyalash nazariyasi, Grin funksiyalari nazariyasi, hisoblash eksperimenti o‘tkazish metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlari qatorining turli tartibli hosilalarini hisoblash uchun rekurrent formulalar qurilgan;

umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglama uchun chegaraviy masala spektral-to‘r metodi bilan approksimatsiyalangan va yaqinlashish teoremalari isbotlangan;

to‘rning maksimal qadami, approksimatsiyalashda qo‘llaniladigan minimal Chebishev ko‘phadlari soni va differensial tenglamadagi yuqori tartibli hosila ko‘rsatkichi orqali taqribiy yechimning aniq yechimga yaqinlashish tezligi bahosi olingan;

umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglama uchun xos qiymat muammosi spektral-to‘r metodi bilan approksimatsiyalangan va yaqinlashish teoremasi isbotlangan;

to‘rning maksimal qadami, approksimatsiyalashda qo‘llaniladigan minimal Chebishev ko‘phadlari soni va differensial tenglamadagi yuqori tartibli hosila ko‘rsatkichi orqali taqribiy xos qiymatlarning aniq xos qiymatlarga yaqinlashish bahosi olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlarining chiziqli kombinatsiyasidan iborat qatorning turli tartibli hosilalarini hisoblash uchun rekurrent formulalar qurilgan;

yuqori tartibli hosila oldida kichik parametr bo‘lgan differensial tenglama uchun chegaraviy masalani spektral metodi bilan approksimatsiyalangan, yechish algoritmi ishlab chiqilgan va dasturiy ta’minoti yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amaliy matematika, to‘rlar nazariyasi, Grin funksiyalari nazariyasi, hisoblash eksperimenti o‘tkazish metodlaridan foydalanilganligi, yuqori tartibli differensial tenglama hamda ushbu tenglamaga mos xos qiymat muammosi uchun qo‘yilgan chegaraviy masalani yechishning spektral-to‘r metodining yuqori aniqligi va tejamkorligini baholash bilan asoslangan, shuningdek, yuqori tartibli hosila oldida kichik parametr bo‘lgan tenglamaning aniq yechimi va spektral metod orqali olingan taqribiy yechimini taqqoslash natijalarining muvofiqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglama uchun chegaraviy masalani hamda ushbu tenglama uchun xos qiymat muammosini yechish uchun yuqori aniqlik va samarali sonli metodlarni qurishda taklif qilingan spektral-to‘r metodining ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlari bilan yaqinlashishi va yaqinlashish tezligi baholarini olishni ta’minlaydigan teoremalarning isbotlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qurilgan spektral-to‘r metodi, yaratilgan algoritm va dasturlar majmui umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglama va bunday tenglamalar uchun xos qiymat muammosini yechish jarayonida yuqori aniqlik va samarali hisoblash tajribalarini o’tkazishga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglama uchun chegaraviy masalani hamda ushbu tenglama uchun xos qiymat muammosini ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlari bilan sonli yechishning spektral-to‘r metodi, algoritmlari va dasturiy ta’minoti asosida:

umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni va bunday tenglamalar uchun xos qiymat muammosini yechishda qo‘llanilgan usullardan OT-F4-64 raqamli “Birjinslimas g‘ovak muhitlarda suyuqlik sizishi va moddalar ko‘chishi gidrodinamik modellarni tuzish va sonli tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihaning “Yoriq-g‘ovak muhitlarda moddaning sizishi va anomal ko‘chishi gidrodinamik modellarini tuzish va sonli tahlil qilish” nomli 2-bosqichida ikki zonali silindrik birjinslimas yoriq-g‘ovak muhitlarda anomal modda ko‘chishi va suyuqliklar sizishi masalalarini sonli tadqiq etishda foydalanilgan (Samarqand davlat universitetining 2024-yil 9-iyuldagi 10-3344-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi ikki zonali silindrik birjinslimas yoriq-g‘ovak muhitlarda anomal modda ko‘chishi va suyuqliklar sizishi masalalarini sonli tadqiq etishda g‘ovak muhitdagi konvektiv-diffuzion ko‘chish tenglamasini samarali sonli yechish imkonini bergan;

yuqori tartibli hosila oldida kichik parametr bo‘lgan differensial tenglama uchun chegaraviy masalani sonli yechish uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta’minotidan FZ-202009211 raqamli “Aralash turdagi tenglamalar uchun xarakteristika va buzilish chizig‘ida Frankl va Bitsadze-Samarskiy shartlari berilgan masalalar korrektligini noklassik singulyar integral tenglamalarga olib kelib o‘rganish” mavzusidagi fundamental loyihada noklassik singulyar integral tenglamalarni sonli tadqiq etishda foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2024-yil 18-iyuldagi 04/12-2417-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo‘llanilishi singulyar koeffitsiyentli Gellerstedt tenglamasi uchun Trikomi va ichki xarakteristikalarda siljishli shartlili kombinatsiyalashgan masalalarni yechishda hosil bo‘ladigan integral tenglamalarni sonli yechish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 7 ta halqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo`yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan O`zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy (Scopus bazasida indeksatsiyalangan), 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan. Shuningdek, 2 ta EHM dasturiy mahsulotlarni qayd etish guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 84 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusiga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlari”** deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiyaning asosiy natijalarini bayon qilishda zarur bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning 1.1-paragrafida ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlarining trigonometrik va algebraik shakldagi ifodalari hamda ushbu ko‘phadlarning muhim xossalari bayon qilingan. Oddiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalarni spektral metodlar bilan yechishda ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlaridan ortogonal bazis funksiyalar sifatida foydalanilganda taqribiy yechim quyidagi ko‘rinishda izlanadi:

$$u_t(x) = \sum_{n=o}^{N} a_n U_n(x), \tag{1}$$

bu yerda $a_n \ (n = 0,1,2,...,N)$-noma’lum koeffitsiyentlar, $U_n(x)$-ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlari. Taqribiy yechim $u_t(x)$ning hosilalarini hisoblash uchun quyidagi formulalar chiqarildi:

$$\frac{du_t}{dx} = \sum_{n=0}^{N} 2(n+1)\left(\sum_{\substack{p=n+1 \\ p+n\equiv 1(\mathrm{mod}\,2)}}^{N} a_p \right) U_n(x)$$

$$\frac{d^2u_t}{dx^2} = \sum_{n=0}^{N} (n+1)\left(\sum_{\substack{p=n+2 \\ p\equiv n(\mathrm{mod}\,2)}}^{N} (p-n)(\mathrm{p}+\mathrm{n}+2) a_p \right) U_n(x)$$

$$\frac{d^3u_t}{dx^3}=\sum_{n=0}^{N}4(n+1)\left(\sum_{\substack{p=n+3\\ p+n\equiv1(\mathrm{mod}\,2)}}^{N}\left(\left(\frac{p-n-1}{2}\right)^4+2\left(\frac{p-n-1}{2}\right)^3(n+1)+\right.\right.$$

$$\left.\left.+\left(\frac{p-n-1}{2}\right)^2\left(n^2+5n+5\right)+\left(\frac{p-n-1}{2}\right)\left(n^2+3n+2\right)\right)\right)U_n(x)$$

$$\frac{d^4u_t}{dx^4}=\sum_{n=0}^{N}2\,(n+1)\left(\sum_{\substack{p=n+4\\ p\equiv n(\mathrm{mod}\,2)}}^{N}\left((p-n-2)(p-n)\left(\frac{n^3}{3}\left(\frac{p-n+2}{2}\right)+\right.\right.\right.\tag{2}$$

$$+n^2\left(\frac{p-n+2}{2}\right)^2+n\left(\left(\frac{p-n+2}{2}\right)^3-\frac{1}{3}\left(\frac{p-n+2}{2}\right)\right)+$$

$$\left.\left.\left.+\left(\frac{p-n+2}{2}\right)^2\frac{(p-n)(p-n+4)}{12}\right)\right)\right)U_n(x)$$

1.2-paragrafda ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlarining turli sonli metodlar yaratishdagi, amaliy masalalarni hamda differensial tenglamalarni yechishdagi tadbiqiga oid ilmiy tadqiqot ishlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Oddiy differensial tenglama uchun chegaraviy masalani spektral-to‘r metodi bilan sonli yechish”** deb nomlanib, unda umumiy ko‘rinishdagi oddiy differensial tenglama uchun birjinsli chegaraviy masalani spektral-to‘r metodi bilan ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlaridan bazis funksiyalari sifatida foydalanib yechish bayon qilingan. Metodning yaqinlashishi va yaqinlashish tezligi bahosi haqidagi teoremalar isbotlangan.

Ushbu bobning 2.1-paragrafida m-tartibli chiziqli oddiy differensial tenglama

$$L_0u=\frac{d^mu}{dy^m}+\sum_{i=0}^{m-1}q_i(y)\frac{d^iu}{dy^i}=f(y),\ -1<y<+1\tag{3}$$

birjinsli chegaraviy shartlar

$$\sum_{k=0}^{m-1}\left(\alpha_{ik}\frac{d^ku(-1)}{dy^k}+\beta_{ik}\frac{d^ku(+1)}{dy^k}\right)=0,\ i=1,2,...,m\tag{4}$$

bilan qaralgan. Differensial masala (3)-(4) $f(y)=0$ da faqat trivial yechimga ega deb faraz qilamiz. Bu qaralayotgan masala uchun Grin funksiyasi mavjudligini ta’minlaydi. Differensial tenglama (3)dagi $\frac{d^m}{dy^m}$ operator uchun Grin funksiyasi mavjud. Uni $G(y,\xi)$ orqali belgilaymiz. Quyidagi uzluksiz funksiyani kiritamiz:

$$x(y)=\frac{d^m}{dy^m}u(y),\tag{5}$$

bu erda $u(y)$ masala (3)-(4)ning yechimi. U holda

$$u(y)=\int_{-1}^{+1}G(y,\xi)\,x(\xi)\,d\xi\tag{6}$$

Endi (6)ni (3)ga qo‘yib va (5)ni e’tiborga olsak quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz:

$$x(y)+\int_{-1}^{+1}\left(\sum_{i=0}^{m-1}q_i(y)G^{(i)}(y,\xi)\right)x(\xi)d\xi=\int_{-1}^{+1}G(y,\xi)f(\xi)d\xi .$$

Oxirgi tenglamada $T(y,\xi)=\sum_{i=0}^{m-1}q_i(y)G^{(i)}(y,\xi)$ deb belgilash kiritsak, u holda uni quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin:

$$x(y)+\int_{-1}^{+1}T(y,\xi)x(\xi)d\xi=\int_{-1}^{+1}G(y,\xi)f(\xi)d\xi \qquad (7)$$

Grin funksiyasi xossalaridan kelib chiqadiki, $T(y,\xi)$ funksiya o‘z argumentlari bo‘yicha $[-1,1]\times[-1,1]$ sohada uzluksiz funksiya bo‘lib, u $y=\xi$ ”diagonal”da chekli uzilishlarga ega. Agar ushbu $Tx=\int_{-1}^{+1}T(y,\xi)x(\xi)d\xi$ operatorni hamda $F(y)=\int_{-1}^{+1}G(y,\xi)f(\xi)d\xi$ funksiyani kiritsak, u holda (7)ni quyidagi ikkinchi tur uzluksiz operatorli tenglama ko‘rinishida yozish mumkin:

$$(I+T)x=F,\ I\text{-birlik operator} \qquad (8)$$

2.2-paragrafda differensial masala (3)-(4) spektral-to‘r metodi bilan approksimatsiyalanib, diskret masalaga keltiriladi.

Spektral-to‘r metodida qaralayotgan integrallash kesmasi $[-1,+1]$da to‘r kiritiladi: $-1=y_0<y_1<\ldots<y_N=1,$ bu erda N–berilgan butun musbat son. To‘r teng oraliqli yoki tengmas oraliqli bo‘lishi mumkin. Masala (3)-(4) ning taqribiy yechimi to‘rning har bir elementi $[y_{j-1},y_j]\,(j=1,2,\ldots,N)$da turli sondagi ikkinchi tur Chebishev ko‘phadlari $U_n$ning chiziqli kombinatsiyasi ko‘rinishida izlanadi:

$$u_j^{(p_j)}(y)=\sum_{n=0}^{p_j}a_n^{(p_j)}U_n(\tilde{y}),\ y\in[y_{j-1},y_j],\ y=\frac{m_j}{2}+\frac{l_j}{2}\tilde{y}, \qquad (9)$$

bu yerda $m_j=y_j+y_{j-1}$, $l_j=y_j-y_{j-1}$, $-1\le\tilde{y}\le 1$ bo‘lib, $l_j-$to‘rning j-elementining uzunligi. To‘rning maksimal qadami $\hbar=\max\limits_{1<j<N}l_j=\max\limits_{1<j<N}\left(y_j-y_{j-1}\right)$, p_j-differensial masala (3)-(4)ning yechimini to‘rning j-elementi $[y_{j-1},y_j]$da approksimatsiyalashda foydalaniladigan Chebishev ko‘phadlari soni, bu yerda har bir fiksirlangan j uchun $p_j\to\infty$ hamda $p_j>m$, to‘rning elementlarida yechimni approksimatsiyalashda qo‘llaniladigan minimal ko‘phadlar sonini $p_-=\min\limits_{1<j<N}p_j$, umumiy sonini esa $\bar{m}=\sum_{j=1}^{N}(p_j+1)$ bilan belgilaymiz. Spektral-to‘r metodida to‘rning ichki tugunlari $y_j\ (j=1,2,\ldots N-1)$da taqribiy yechim (9) va uning

$(m-1)$-tartibgacha bo‘lgan hosilalarining uzluksizligi hamda to‘rning $y_0=-1$ va $y_N=+1$ chegaraviy nuqtalarida mos chegaraviy shartlarning qanoatlantirilishi talab qilinadi:

$$\begin{cases} \dfrac{d^s u_j^{(p_j)}(y_j)}{dy^s} = \dfrac{d^s u_{j+1}^{(p_{j+1})}(y_j)}{dy^s}, \ s=0,1,\ldots,m-1, \ j=1,2,\ldots,N-1, \\ \sum\limits_{k=0}^{m-1}\left[\alpha_{ik}\dfrac{d^k u_1^{(p_1)}(-1)}{dy^k}+\beta_{ik}\dfrac{d^k u_N^{(p_N)}(+1)}{dy^k}\right]=0, \ i=1,2,\ldots,m. \end{cases} \tag{10}$$

Taqribiy yechim koeffitsiyentlari $a_n^{(p_j)}$ larni $\left(L_0 u_j^{(p_j)}(y)-f_j\right)$ xatolikning $\left[y_{j-1},y_j\right]$ kesmada $\rho(\tilde{y})$ vazn bilan p_j-m- darajagacha bo‘lgan Chebishev ko‘phadlariga ortogonal bo‘lish shartidan aniqlaymiz, ya’ni

$$\int\limits_{y_{j-1}}^{y_j}\left(L_0 u_j^{(p_j)}(y)-f_j(y)\right)U_k(\tilde{y})\rho(\tilde{y})\,dy=0, \quad \begin{matrix} j=1,2,\ldots N, \\ k=0,1,\ldots,p_j-m, \end{matrix} \tag{11}$$

bu yerda $\rho(\tilde{y})=\sqrt{1-\tilde{y}^2}$, $-1\le\tilde{y}\le1$, $f_j(y)=f(y)\big|_{y\in\left[y_{j-1},y_j\right]}$.

Endi $x_j^{(p_j)}(y)=\dfrac{d^m}{dy^m}u_j^{(p_j)}(y),\ y\in\left[y_{j-1},y_j\right]$, (12)

belgilash kiritsak, u holda $x_j^{(p_j)}(y)=\sum\limits_{n=0}^{p_j}a_n^{(p_j)}\left(\dfrac{2}{l_j}\right)^m U_n^{(m)}(\tilde{y})$. (13)

So‘ngra $X^{(p)}=\left(x_1^{(p_1)}(y),x_2^{(p_2)}(y),\ldots,x_N^{(p_N)}(y)\right)$ vektorni hamda chekli o‘lchovli $X^{(p)}$ vektorlar fazosi $L_{2,\rho}^{(p)}$ da quyidagicha skalyar ko‘paytmani kiritamiz:

$\left(X^{(p)},Z^{(p)}\right)_{L_{2,\rho}^{(p)}}=\sum\limits_{j=1}^{N}\int\limits_{y_{j-1}}^{y_j}x_j^{(p_j)}(y)\,z_j^{(p_j)}(y)\rho(\tilde{y})dy,\ \tilde{y}\in[-1,+1]$. Xuddi shuningdek, vektor funksiyalar $X=\left(x_1(y),x_2(y),\ldots,x_N(y)\right)$, $x_i(y)\in L_{2,\rho}\left(y_{i-1},y_i\right)$ ning Gilbert fazosi $L_{2,\rho}^N$ ni kiritamiz, ya’ni

$$L_{2,\rho}^N\in L_{2,\rho}\left(y_0,y_1\right)\times L_{2,\rho}\left(y_1,y_2\right)\times\ldots\times L_{2,\rho}\left(y_{N-1},y_N\right)$$

hamda skalyar ko‘paytma ham $L_{2,\rho}^{(p)}$ fazodagi kabi aniqlanadi.

Masala (11)da Grin funksiyalarini qo‘llab, quyidagi ikkinchi tur diskret operatorli tenglamaga keltiriladi:

$$X^{(p)}+P_pTX^{(p)}=P_pF,\ X^{(p)}\in L_{2,\rho}^{(p)}, \tag{14}$$

bu yerda

$$TX^{(p)}=\left(\sum_{i=1}^{N}T^i x_i^{(p_i)}(y)\bigg|_{y\in[y_0,y_1]},\sum_{i=1}^{N}T^i x_i^{(p_i)}(y)\bigg|_{y\in[y_1,y_2]},\ldots\right),$$

$$F=\left(F_1(y)_{y\in[y_0,y_1]},F_2(y)\big|_{y\in[y_1,y_2]}\Big|,...,F_N(y)\big|_{y\in[y_{N-1},y_N]}\right).$$

$P_p:L^N_{2,\rho}\to L^{(p)}_{2,\rho}$ proyektorni quyidagi qoida asosida kiritamiz:

agar $X=(x_1(y),x_2(y),...,x_N(y))$ va $x_i(y)=\sum\limits_{k=0}^{\infty}c_k^{(i)}U_k(\tilde{y})$ bo‘lsa, u holda

$$P_pX=\left(\sum_{k=0}^{p_1-m}c_k^{(1)}U_k(\tilde{y}),...,\sum_{k=0}^{p_N-m}c_k^{(N)}U_k(\tilde{y})\right).$$

X vektor bo‘yicha har doim $y\in[y_{i-1},y_i]$da $x(y)=x_i(y)$qoida bo‘yicha $x(y)$ funksiyani tuzish mumkin, u holda $L^N_{2,\rho}$ fazo $L^N_{2,\rho}(-1,+1)$fazoga undagi skalyar ko‘paytma bo‘yicha izomorf bo‘ladi. Agar tenglama (8)ning yechimi $x(y)$ funksiyalariga nisbatan yuqoridagi izomorfizm yordamida $X(y)$vektorni aniqlasak, ya’ni,

$$X(y)=\left(x(y)\big|_{y\in[y_0,y_1]},x(y)\big|_{y\in[y_1,y_2]},...,x(y)\big|_{y\in[y_{N-1},y_N]}\right)=(x_1,x_2,...,x_N),$$

tenglama (8)da aniqlangan T operator va F funksiya esa

$$TX=\left(\sum_{i=1}^{N}T^ix_i\Big|_{y\in[y_0,y_1]},...\right)=\left(\int_{-1}^{1}T(y,\xi)x(\xi)d\xi\Big|_{y\in[y_0,y_1]},...\right)=(Tx,Tx,...,Tx),$$

$$F=\left(F_1(y)\big|_{y\in[y_0,y_1]},...\right)=\left(\int_{-1}^{1}G(y,\xi)\,f(\xi)d\xi\Big|_{y\in[y_0,y_1]},...\right)=(Fy,Fy,...,Fy)$$

formulalarga asosan aniqlangan bo‘lsa, u holda (8) tenglamani quyidagi ekvivalent shaklda yozish mumkin:

$$X+TX=F,\ F\in L^N_{2,\rho} \tag{15}$$

Ushbu tenglama taqribiy yechim uchun yozilgan tenglama (14) bilan taqqoslash hamda ma‘lum natijalardan foydalanish uchun qulay.

2.3-paragrafda birjinsli chegaraviy shartlar bilan qaralgan umumiy ko‘rinishdagi differensial tenglama uchun spektral-to‘r metodining yaqinlashishi, yaqinlashish tezligi baholari haqidagi teoremalar isbotlanadi.

1-izoh. Agar biror bir normada $(p)\to\infty$ da $X^{(p)}\to X$ bo‘lsa (masalan, $L^N_{2,\rho}$ dagi skalyar ko‘paytma bilan aniqlangan), u holda $X^{(p)}$ va X vektorlarning komponentlari orqali $x^{(p)}(y)$ va $x(y)$ $(y\in[-1,+1])$ funksiyalarni quramiz, biz ko‘rsatilgandek $L^N_{2,\rho}$da $x^{(p)}$ning $x$ga yaqinlashishiga ega bo‘lamiz. Bu $x(y)$ funksiyani operatorli tenglama (8)ning yechimi deb hisoblash uchun asos bo‘ladi.

Spektral-to‘r metodining yaqinlashishini isbotlashda differensial masala (3)-(4)ni yechishga tadbiq etilgan spektral-to‘r metodi ikkinchi tur operatorli tenglama (15)ga ekvivalent ekanligini ko‘rsatamiz. Ushbu tenglamaga proyeksion metodlar yaqinlashishining umumiy teoremalarini qo‘llash mumkin.

1-teorema. Tenglama (3)ning koeffitsiyentlari va o‘ng tomonidagi funksiya uzluksiz bo‘lsin. Tenglama (15)ning yechimi X_0 bo‘lsin (X_0ning mavjudligi masala (3)-(4) ning bir qiymatli yechimga ega ekanligidan kelib chiqadi).U holda (p)ning yetarlicha katta qiymatlarida (ya'ni, barcha j lar uchun p_j ning katta qiymatlarida) tenglama (14) yagona $X^{(p)}$ yechimga ega va ushbu baho o'rinli:

$$\left\|X^{(p)} - X_0\right\|_{L_{2,\rho}^N} \le c_0 \left\|X_0 - X_p^0\right\|_{L_{2,\rho}^N} \tag{16}$$

bunda X_p^0 uzunligi "p"ga teng bo'lgan $X_0 = (x_1^0,...,x_N^0)$ funksiyaning Chebishev ko'phadlari bo'yicha Furye kesmasi, ya'ni

$$X_p^0 = (x_{p_1}^{(0)},...,x_{p_N}^{(0)}),\ x_{p_i}^{(0)} = \sum_{j=0}^{p_j-m} \tilde{c}_j^i U_j(\tilde{y}),\ \tilde{c}_j^i = \int_{y_{j-1}}^{y_j} x_i^0(y) U_j(\tilde{y}) \rho(\tilde{y}) dy,$$

$$\left(\left\|X_0\right\|_{L_{2,\rho}^N}^2 = \sum_{j=1}^{N}\left(\sum_{i=1}^{\infty} (\tilde{c}_i^{(j)})^2\right)\right),\ \left\|X^{(p)} - X_p^0\right\|_{L_{2,\rho}^N}^2 = \sum_{j=1}^{N}\left(\sum_{i=p_j-m+1}^{\infty}\left(\tilde{c}_i^{(j)}\right)^2\right);$$

c_0-o'zgarmas bo'lib, u $\left(I+T\right)^{-1}$ teskari operatorning normasiga bog'liq bo'ladi, $I-$birlik operator.

2-teorema. 1-teoremadagi mulohazalar o'rinli bo'lsin. Funksiya $u^{(p)}\left(y\right) = \int_{-1}^{+1} G\left(y,\xi\right) x^{(p)}\left(\xi\right) d\xi$, $(p) \to \infty$ da masala (3)-(4)ning aniq yechimi $u_0\left(y\right)$ga W_2^m fazo normasi $\left(\left\|\varphi\right\|_{W_2^m}^2 = \sum_{k=0}^{m}\left\|\frac{d^k\varphi}{dy^k}\right\|^2\right)$ bo'yicha yaqinlashadi va quyidagi baho o'rinli bo'ladi:

$$\left\|u^{(p)} - u_0\right\|_{W_2^m(-1,+1)} \le \tilde{c}_0 \left\|X^{(p)} - X_0\right\|_{L_{2,\rho}^N}, \tag{17}$$

bunda $\tilde{c}_0 = c_0\tilde{c}$, $\tilde{c} = \sup\limits_{\varphi\in L_{2,\rho}} \dfrac{\left\|\int_{-1}^{1} G(y,\xi)\varphi(\xi)d\xi\right\|_{W_2^m}}{\left\|\varphi\right\|_{L_{2,\rho}}}$.

3-teorema. Tenglama (3)ning koeffitsiyentlari va o'ng tomonidagi funksiya $C^{s+\alpha}\left[-1,+1\right]$ fazoga tegishli bo'lsin, u holda 1-teoremadagi tasdiq o'rinli bo'lib, baho (16) quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\left\|X^{(p)} - X_0\right\|_{L_{2,\rho}^N}^2 \le \tilde{c}_1 \left(\frac{\text{h}}{p_- - m}\right)^{2(s+\alpha)}, \tag{18}$$

bu yerda $(p) = \left(p_1, p_2,..., p_N\right)$, $p_- = \min\limits_{1\le j\le N} p_j$, $\hbar = \max\limits_{1\le j\le N}\left(y_j - y_{j-1}\right)$,

$$\tilde{c}_1 = c_0 c_1,\ c_1 = \frac{\pi}{2}\left(c_s^{'} M\right)^2,\ c_s^{'} = 12\frac{6^s s^s}{s!}\left(\frac{s+1}{2}\right)^{\alpha},$$

$s\,(s=\overline{1,m})$ - hosila tartibi, o‘zgarmaslar M,α Lipshits shartidan aniqlanadi: $\left|f^{(s)}(y_j)-f^{(s)}(y_{j-1})\right|\le M\left|y_j-y_{j-1}\right|^{\alpha}$.

4-Teorema. Agar tenglama (3)ning koeffitsiyentlari va o‘ng tomonidagi funksiya $C^{s+\alpha}[-1,+1]$ fazoga tegishli bo‘lsa, u holda $(p)\to\infty$ da $u^{(p)}(y)=\int_{-1}^{+1}G(y,\xi)x^{(p)}(\xi)d\xi$ funksiya masala (3)-(4) ning yechimi $u_0(y)$ funksiyaga W_2^m fazo normasi bo‘yicha yaqinlashadi va quyidagi baho o‘rinli bo‘ladi:

$$\left\|u^{(p)}-u_0\right\|^2_{W_2^m(-1,1)}\le c_2\left(\frac{\hbar}{p_{-}-m}\right)^{2(s+\alpha)}, \tag{19}$$

bunda $c_2=\tilde{c}_0^2\tilde{c}_1$.

Dissertatsiyaning 3-bobi **“Spektral-to‘r metodini xos qiymat muammosini yechishga qo‘llash”** deb nomlanadi, unda umumiy ko’rinishdagi xos qiymat muammosini yechishga spektral-to‘r metodini qo‘llash qaralgan bo‘lib, dastlab uzluksiz xos qiymat muammosi va spektral-to‘r metodi bilan olingan diskret xos qiymat muammosi ikkinchi tur operatorli tenglamaga keltiriladi. So‘ngra uzluksiz operatorli tenglama xos qiymatlariga spektral-to‘r metodi bilan olingan diskret operatorli tenglama xos qiymatlarining yaqinlashishi isbotlangan va yaqinlashish tezligi baholangan.

3.1-paragrafida umumiy ko‘rinishdagi $m-$tartibli oddiy differensial tenglamani

$$L^{\lambda}u=u^{(m)}(y)+\sum_{i=0}^{m-1}q_i(y)u^{(i)}(y)-\lambda\sum_{i=0}^{l}\overline{q}_i(y)u^{(i)}(y)=0,\ l<m,\ y\in(-1,+1) \tag{20}$$

chiziqli birjinsli chegaraviy shartlar

$$\sum_{k=0}^{m-1}\left(\alpha_{ik}u^{(k)}(-1)+\beta_{ik}u^{(k)}(+1)\right)=0,\ i=1,2,...,m \tag{21}$$

bilan qaralgan.

